

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-51409-3.03

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**YaNGI PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 140000 - "O'kituvchilar
tayyorlash va pedagogika" ta'lim sohasidagi
5140900 - "Kasb ta'limi" bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Primov M.,
k.o'q. Sultonov Q.

Taqrizchilar: prof. Quronov M.,
prof. Tojiev M.

"Yangi pedagogik texnologiyalar" fani dasturida asosiy e'tibor yangi, zamonaviy usullar hamda ilmiy asoslangan tamoyillar va qonuniyatlar asosida ta'lim jarayonini shakllantirishga qaratilgan.

"Yangi pedagogik texnologiyalar" fani dasturida ta'lim jarayonini loyihalashtirish, ta'limda maqsad va vazifalarni aniqlashtirish, interaktiv ta'lim, multimedia tizimlari asosida ta'lim berish kabi mavzular qamrab olingan.

Shuningdek tezkor usullarda, keng qamrovli texnologiyalar va boshqa noan'anaviy usullar asosida bilimlarni haqqoniy va aniq baholash muammosiga alohida e'tibor qaratilgan.

В программе по предмету "Новые педагогические технологии" основное внимание уделяется процессу образования при помощи новых, современных усюлов и приёмов на основе научно обоснованных принципов и закономерностей.

В программе изучается и анализируется: проектирование образовательного процесса, конкретизация целей и задач в обучении, интерактивное обучение, обучение с использованием мультимедийных систем и др.

Кроме того, большое внимание уделяется проблеме объективного и точного оценивания знаний с использованием оперативных усюлов, широко охватывающих технологий, других нетрадиционных усюлов.

In subject "New pedagogics technologies" main attension sparing to the prosses of education with helping new and modern methods and ways on basic of scientific principles and conformity to natural laws.

In subject "New pedagogics technologies" learning and analysis: projecting of education process, clearing of aims and tasks on training, interactive training, instruction with using system of multimedia and etc.

Besides, great attension sparing to the problem of evaluating knowledge exactly and objectivly with using operation ways, wide spreading technologies and other untraditional methods.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

O'quv fanining maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Iqtisodiyot oliy o'quv yurtlari bugungi kun talablariga javob beradigan iqtisodchi-pedagog kadrlarni tayyorlashda "Yangi pedagogik texnologiyalar" fanini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. "Yangi pedagogik texnologiyalar" fanida ta'lim va tarbiyaning bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda bayon qilinishi kerak bo'lgan tamoyillari, qonuniyatlari, uslub va tizimlari o'z aksini topgan. Ayniqsa, bunda o'qitishning interfaol, ko'rgazmali hamda tezkor uslublariga katta e'tibor berilgan.

Fanni o'qitishdan asosiy maqsad bakalavrlarga mazkur fan bo'yicha to'liq axborotni berish va ularda o'z faoliyatlarida yangi pedagogik texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish hisoblanadi.

"Yangi pedagogik texnologiyalar" fanini mukammal o'rganmoq uchun falsafa, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarni bank ishi, sug'urta, soliq, buxgalteriya hisobi mutaxassisliklariga oid fanlar bilan uzviylikda o'rganish muhim ahamiyatga egadir.

O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratlarga talablar

Ilg'or pedagogik texnologiyalarning mohiyatini, asosiy tamoyillari va maqsadlarini tushunish. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda ulardan foydalanish malakasiga ega bo'lish.

Quyidagi tajribaga ega bo'lishi kerak:

- mashg'ulotlarda o'quv materiallarini o'zlashtirish rejasi va mashg'ulotning reja konspektlarini turli-xil shakllarda tuzish;
- zamonaviy pedagogik tamoyillar asosida ta'limni, bilim olishni tashkil qilish;
- talabalar mustaqil ishlashini va mustaqil ta'limini ilmiy-uslubiy jihatdan mukammal tashkil qila olish.

Seminar mashg'ulotlari bo'yicha bajariladigan ishlarning minimal miqdoriga talablar

Iqtisodchi-bakalavrlar "Yangi pedagogik texnologiyalar" fanini o'zlashtirish jarayonidagi, seminar mashg'ulotlarini bahs munozara shaklida olib borish, mavzular bo'yicha test variantlarini tuzish, berilgan adabiyotlardan foydalangan holda amaliy mashg'ulot savollariga javoblar, referatlar yozish ko'zda tutiladi.

Auditoriya mashg'uloti turlarining soatlar hajmi bo'yicha tavsiyalar

Namunaviy o'quv rejasida mazkur kursga 81 soat ajratilgan. Ularning 27 soati ma'ruza, 27 soati seminar mashg'ulotlaridan, 27 soati mustaqil ta'limdan iborat. Mazkur kursni o'zlashtirish natijasida bakalavrlar yangi pedagogik texnologiyalar sohasida bilim va ko'nikmalariga ega bo'ladilar.

Bakalavrlar bilimni baholash uchun o'tkaziladigan nazorat tadbirlari miqdori

"Yangi pedagogik texnologiyalar" kursidan bakalavrlar bilimni nazorat qilish ikki marta JB, ikki marta OB, bir marta YaB shaklida o'tkaziladi.

Kompyuter, informatsion va boshqa zamonaviy o'qitish texnologiyalarini qo'llash

"Yangi pedagogik texnologiyalar" kursini o'qitishda albomlar, kompyuterlar, audio va video uskunalar, proektorlar va slaydlardan foydalanish talab etiladi.

O'quv dasturini tuzishga oid uslubiy tavsiyalar

"Kasb ta'limi" yo'nalishlarida "Yangi pedagogik texnologiyalar" fani namunaviy o'quv rejasida bo'yicha 7-semestrda o'qitiladi.

2. FAN DASTURI

An'anaviy pedagogik qarashlar va yondashuvlar: tarix va hozirgi zamon

Qadimgi dunyodagi pedagogik qarashlar. O'rta asrlardagi pedagogik ta'limotlar. Yangi davrdagi pedagogik qarashlar va g'oyalar. Markaziy Osiyo xalqlarining pedagogik an'analari. *XIX asrning birinchi yarmi va XX asrdagi an'anaviy pedagogika*. Ilmiy texnika inqilobi davrida jamiyat hayotining barcha tomonlarini jadallashuvi, globallasuvi va ilmiy-texnikaviy inqilob asrida an'anaviy pedagogika muammolarni hozirgi zamonga mos kelmasligi. Yangi pedagogik texnologiyalarning vujudga kelish manbalari.

Yangi pedagogik texnologiyalarni ijtimoiy psixologik asoslari

Bixeviorizm g'oyalari va ularning yangi pedagogik texnologiyalar vujudga kelishidagi roli (Dj. Uotson, E. Torndayk, S. Pressi, B. Skinner). *Yangi pedagogikada rag'batlantirishning roli*. AQSh, G'arbiy Evropa, Yaponiya va Janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida yangi pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish tamoyillari. Yangi pedagogik texnologiyalarning O'zbekistonda joriy etilishining boshlanishi. I.Karimov-O'zbekistonda yangi pedagogik texnologiyalar yaratishning asoschisi.

Ta'lim berishda turli xil yondashuvlarni taqqoslash

An'anaviy tushuntiruvchi-illyustratsiya yondashuvi. Uning imkoniyatlari cheklanganligi va zamonaviy shart-sharoitlarda ularni takomillashtirish zaruriyati. Yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyati. O'quv jarayonida ta'lim oluvchilarning faolligini ta'minlash. O'quv materiallarini taqdim etishning muqobil usullari. Ijodiy muammolarni mustaqil hal etish qobiliyatlarini rivojlantirish. Shaxsni izlanuvchanlik yo'nalishi sari yo'naltirish. *Pedagogikada texnologik va ijodiy izlanuvchanlik yondoshuvlarini qo'shib olib borish zarurati*.

Zamonaviy ta'lim berishning qonunlari va qonuniyatlari

Torndayk qonunlari: o'zaro aloqadorlik qonuni, mashq qilish qonuni, jadallik qonuni, assimilyatsiya qonuni, samaradorlik qonuni. Ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlari: ta'lim berish maqsadlari qonuniyati, ta'lim berish mazmuni qonuniyati, ta'lim sifati qonuniyati, ta'lim usullari qonuniyati, ta'limni boshqarish qonuniyatlari, ta'limni rag'batlantirish qonuniyatlari.

Ta'limdagi xususiy qonuniyatlarning ta'sir sohalari: Didaktik (mazmuniy-protsessual) qonuniyatlar, gnoseologik qonuniyatlar, psixologik qonuniyatlar, kibernetik qonuniyatlar, tashkiliy qonuniyatlar, pedagogik texnologiyalarning ta'rifi. *Pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilari: pedagogik jarayonlarning tashxisliligi va takrorlanuvchanligi*.

Maqsad va vazifalarni loyihalashtirish

An'anaviy o'quv jarayonida maqsadlarni qo'yish: O'rganilayotgan mazmun orqali maqsadlarni belgilash, pedagogik faoliyat orqali maqsadlarni belgilash, ta'lim oluvchilarning o'quv faolligi orqali maqsadlarni belgilash.

Identifikatsiyalashgan o'quv maqsadlari. O'quv natijalarining turli darajalari: asoslarni o'zlashtirish, asoslarni o'zlashtirishdan mahoratni egallashga o'tish, materialni o'zlashtirishdan mahorat bilan egallanadigan to'liq egallashga o'tish. B. Blumning o'quv maqsadlari taksonomiyasi.

Samarali (produktiv) va ijodiy-izlanuvchanlik darajasida o'zlashtirish uchun pedagogik texnologiyalar

Aniq belgilangan o'quv maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan mashg'ulot tarkibi. (R. Gane, L. Briggsu, A. Romishevski, Keller usullari). O'quv jarayonini "Kashf etish orqali ta'lim berish" usuli vositasida tashkil etish modeli. Kontekst ta'lim texnologiyasi: Talabalarning o'quv faoliyati mazmunini mutaxassislar kasb-hunar faoliyatining shakl va usullari mazmuniga maksimal darajada yaqinlashtirish. *Amaliy o'yinlar*. Mashg'ulotlarni o'tkazishdagi yondashuvlar variantlari.

Analitik tafakkurni rivojlantirish usulida ta'lim berish asoslari

Analitik tafakkurning ochiq va demokratik jamiyat tamoyillariga mosligi. "Analitik tafakkurni rivojlantirishdagi o'qish va yozish" loyihasining asosiy tamoyillari. O'quv jarayonida analitik tafakkurni qo'llashning 3 ta bosqichi: chaqiriq, anglash, mulohaza yuritish.

Chaqiriq: mavjud bilimlar darajasini aniqlash, ta'lim oluvchilarni faollashtirish.

Anglash: Bilimlarni mustahkamlash va o'z tasavvurlarini qayta qurish.

Mulohaza yuritish: Yangi o'quv materialini tushunishni ta'minlash. *Refleksiya*.

Analitik tafakkurni rivojlantirish usullari

O'qituvchining maxsus savollari-ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarish vositalari. "Axborotlarni yig'ish"ning sinkveyn usuli. Axborotlarni kengaytirishning klaster usuli. Matn bilan "insert" usulida ishlash. *Ijodiy va nostandart tafakkurni rivojlantirishda "tafakkur bo'roni" va munozara usullaridan foydalanish*.

Analitik tafakkurni rivojlantirishdagi yangi usullar

T-sxema usuli. Taqqoslanadigan ikkilamchi ma'lumotlarni universal grafik tashkil etuvchi "Kubik" usuli. Hamkorlikdagi ta'lim afzalliklari. Hamkorlikda ta'lim olishning asosiy elementlari: ijobiy o'zaro bog'liqlik, bevosita qo'llab-quvvatlovchi o'zaro ta'sir, individual hisobot, shaxslararo muomala ko'nikmalari. *"Zigzak"- 1 va "Zigzak" - 2 usullari*.

Jadallashtirilgan ma'ruzalar texnologiyasi

Pedagog va ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik faoliyati. Chaqiriq, anglash, mulohaza bosqichlari. Har bir bosqichdan so'ng xulosalarni umumlashtirish. Jadallashtirilgan ma'ruzalar jarayonida klaster, insert, sinkveyn usullari, "tafakkur bo'roni" va munozara usullarining imkoniyatlari. *Yakuniy vazifalar va materialni o'zlashtirishni tekshirish*.

Talabalar bilimni o'zlashtirish sifatini baholashning asosiy mezonlari va turlari

Baholashni amalga oshirishda ob'ektivlik tamoyillari. Bir xil sharoitlarda turlicha sinashlar. Baholashning ishonchliligi-pedagogik o'lchashlarning aniqlilik darajasi. Baholash usulining validliligi yoki ishonchliligi. Baholashda ob'ektivlik, ishonchlilik va validlilikni oshirish usullari va ularning pasaytirilish sabablari. Talabaning ruhan ko'tarinkilik faoliyatini mustahkamlash. Natijalarni bilish qoidasi. *Kundalik o'quv materiallarini o'zlashtirilganligini baholab borish usullari.*

Bilimlarni nazorat qilish texnologiyasi

Og'zaki nazoratning o'ziga xos xususiyatlari. Yozma nazoratning afzalliklari va kamchiliklari. Test nazorati-pedagogika rivojlanishida yangi bosqich sifatida. Bilimlarni og'zaki, yozma va test usulida nazorat etishni takomillashtirish xususiyatlari. Test topshiriqlari shakllari: ochiq test, to'g'ri ketma-ketlikni belgilash bo'yicha topshiriqlar, muvofiqlik bo'yicha vazifalar. *Testlarning hozirgi zamon nazariyasi.*

Ta'lim berishda motivlashtirish va faollashtirish

Ta'lim berishning ichki va tashqi motivlari. Talabalar faolligini boshqarish. Yuqori darajada faollikka imkon beradigan vaziyatlar. Ta'lim oluvchilar bilimlari darajasi va sifatining qiziqishlarga bog'liqligi va ularning o'qituvchilarga munosabati. *Yutuqlarni motivlashtirish treningi.*

3. SEMINAR MASHG'ULOTLARINING MAVZUSI

"Yangi pedagogik texnologiyalar" fanining predmeti va usullari

"Yangi pedagogik texnologiyalar" fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi. Yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati va asosiy yo'nalishlari. Yangi pedagogik texnologiyalarning O'zbekistonga kirib kelishi. Pedagogika va pedagogik texnologiyalar.

An'anaviy pedagogik qarashlar va yondashuvlar

Qadimgi dunyodagi pedagogik qarashlar. O'rta asrlar va yangi davrdagi pedagogik ta'limotlar. Markaziy Osiyo xalqlarining pedagogik an'analari.* XIX asrning birinchi yarmi va XX asrdagi an'anaviy pedagogikaning o'ziga xos jihatlari.

Pedagogik texnologiyaning takomil bosqichlari

Bixeviorizm falsafasi. Hatti-harakat va izlanishlar. Pedagogikaga aniq eksperimental psixologiyaning kirib kelishi. Ta'lim-tarbiyada eksperiment. Yangi pedagogik texnologiyalarning O'zbekistonda joriy etilishi. I. Karimov - O'zbekistonda yangi pedagogik texnologiyalar yaratishning asoschisi.*

Ta'lim berishda turli xil yondashuvlarni taqqoslash

O'quv jarayonida ta'lim oluvchilarning faolligini ta'minlash.* O'quv materialini taqdim etishning muqobil usullari. An'anaviy izohlovchi illyustratsiya yondoshuvi. Izohlovchi illyustratsiya yondashuvning yangi pedagogik texnologiyalar shakllanishidagi o'rni va roli.

Yangi pedagogik texnologiyalarda o'quv maqsadining o'rni va roli

An'anaviy pedagogika va yangi pedagogik texnologiyalarda o'quv maqsadining farqi.* Yangi pedagogik texnologiyadagi umumiy, xususiy va alohida o'quv maqsadlari. Ta'lim jarayonida umumiy, xususiy va alohida maqsadlar o'rtasida uzviy mantiqiy, pedagogik, psixologik bog'liqlikni ta'minlash tamoyillari.

Zamonaviy shart-sharoitlarda ta'lim berishning qonunlari va qonuniyatlari

Torndayk qonunlari. Ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlari.* Ta'limdagi xususiy qonuniyatlarning ta'sir sohalari. Pedagogik texnologiyalarning asosiy belgilari. Pedagogik texnologiyalarning ta'rifi.

O'zlashtirishning samarali (produktiv) va ijodiy izlanuvchanlik darajasida pedagogik texnologiyalar

R. Gane va L. Briges samarali ta'lim mazmuni va shakli haqida. Samarali ta'limda tafakkurni shakllantiruvchi asosiy motivlar.* Ijodiy o'zlashtirishning Dj. Keroli va I.Blum texnologiyasi. O'quv axborotlarini bayon qilishda o'quv qo'llanmalaridan, darsliklardan foydalanish. O'quv materiallarini o'zlashtirilganligini kundalik baholab borish.

Analitik tafakkur usulida ta'lim berish asoslari

Analitik tafakkurning ochiq va demokratik jamiyat tamoyillariga mosligi.* O'quv jarayonida analitik tafakkurni qo'llashning chaqiriq, anglash, mulohaza yuritish kabi bosqichlari.

Analitik tafakkurni rivojlantirish usullari

Ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini boshqarish vositalari. "Axborotlarni yig'ish"da sinkveyn usuli.* Axborotlarni kengaytirishda klaster usuli.* Matn bilan "insert" usuli yordamida ishlash.* "Natijalarni bilish" qoidasi.

Pedagogik texnologiya va mustaqil ijodiy tafakkur

Mustaqillikni mustahkamlashda talabalar erkin tafakkurini shakllantirishning dolzarbligi. Erkin tafakkurni shakllantirish omillari va shartlari. Erkin tafakkurni shakllantirishda yangi pedagogik texnologiya tamoyillarining ishlashi. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda yangi pedagogik texnologiya.*

O'quv maqsadlarini sistemalashtirish

Mazmunini o'rganishga ko'ra o'quv maqsadini belgilash. Pedagogik faoliyatga ko'ra maqsadni belgilash. Talabanning ichki intilishiga ko'ra maqsadni belgilash.* Talabanning o'quv faoliyatiga ko'ra maqsadni belgilash.

Talabalarda bilishga qiziqishni oshirish va yangi pedagogik texnologiyalar

Bilishga qiziqishni orttirishning mohiyati, vositalari va usullari. Bilishga qiziqishni orttirishda test topshiriqlarining roli. Test topshiriqlarini maqsad va vazifaga ko'ra tayyorlash.* Moliyaviy ta'limda testlarni o'ziga xos tarzda tayyorlash va o'tkazish.

O'quv maqsadiga erishish va uni baholash

Og'zaki va yozma nazorat, uning turlari, ularni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Test nazorati, uning ustunlik jihatlari.* Test nazoratining kamchiliklari, bunda talabanning javobni o'zi tayyorlash imkoniyatining cheklanganligi.

O'zbekiston Respublikasida yangi pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni yig'ish, klassifikatsiya qilish va joriy etishda oliy va o'rta maxsus maktab muammolari institutining roli. Oliy o'quv yurtlarida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo'lgan shart- sharoitlarning mavjudligi.*

Yangi pedagogik texnologiyalarini joriy qilish va kadrlar muammosi. Yangi pedagogik texnologiyalar va axborot makoni birligi.

4. INFORMATsION-TEXNIK VOSITALAR

Ko'rgazma-namoyish materiallar ro'yxati:

- yangi pedagogik texnologiyalarning ilm-fan amaliyot bilan bog'liqligini aks ettiruvchi sxematik plakatlar;
- yangi pedagogik texnologiyalarning ilmiy tadqiqot usullari ko'rsatilgan plakatlar;
- ta'lim mazmunini tashkil qiluvchi ta'lim tamoyillari aks ettirilgan ko'rgazmali plakatlar.

Ma'ruza matnlari bo'yicha tarqatma materiallar.

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tarqatma materiallar.

5. O'ZLASH TIRISHNING NAZORATI

Nazorat qilish turlari

joriy baholash uchun:

- seminarning mashg'ulot savollariga yozma javoblar tayyorlash;
- og'zaki bahs-munozaralarda qatnashish;
- test variantlariga javoblar berish;
- referatlar yozish.

oraliq baholash uchun:

- ma'ruza darslariga qatnashish;
- ma'ruzalar mazmunini yozib borish;
- ma'ruza darslarida savol-javoblar bilan faol ishtirok etish.

yakuniy baholash uchun:

kafedrada tasdiqlangan fan dasturi bo'yicha variant savollariga test yoki og'zaki savol-javoblar ko'rinishida javob berish.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. – T.: O'zbekiston, 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – T.: O'zbekiston, 1997.
7. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. - T.: O'zbekiston, 1998.
8. Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999.

9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: O'zbekiston, 2000.
10. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. – T.: O'zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – T.: O'zbekiston, 2002.
12. Bepalko B. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii.-M.: Pedagogika, 1999.
13. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T.: Sharq, 1997.
14. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: O'zbekiston, 2000 y.
15. Farberman B. L, Musina R. G., F. A. Djumabaeva. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari.-T.: 2002.
16. Farberman B. L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. -T.: Fan, 2000.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Dayana Xalpern. Psixologiya kriticheskogo mishleniya. Sankt-Peterburg, 2000.
2. Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Teligl. Proekt: Chtenie v pismo dlya razvitiya kriticheskogo mishleniya. Posobiya 1-7. Bishkek, 1998.
3. Mavlonova R, To'raeva J. Pedagogika. T.: O'qituvchi, 2001.
4. Pedagogika. (A.Munavvarovning umumiy tahriri) -T.: O'qituvchi, 1996.
5. Podlasiy I. P. Pedagogika. Noviy kurs.-M.: 1999.
6. Raven Djon-mladshiy. Pedagogicheskoe testirovanie: problemi, zabljudeniya, perspektivi. Per. s angl. - M.: 1999.
7. Selevko G. K. Sovremennie obrazovatelnie texnologii - M.: 1998.
8. Sibirskaya M.P. Professionalnoe obuchenie: Pedagogicheskie texnologii. Sankt Peterburg, 1996.
9. Slastenin V.A., L.S.Podmova, Pedagogika: Innovatsionnaya deyatelnost. - M.: 1998.
10. Farberman B. L, R. G. Musina, F. A. Djumabaeva. Sovremennie usuli prepodavaniya v vuzax. -T.: 2001.
11. G'aybullaev N. Pedagogika. -T.: 1996.